

Xalqaro valyuta-kredit munosabatlarining vujudga kelishi va amal qilishi

Mundarija

Kirish.....	3
1. Valyuta munosabatlari tushunchasi, ularning shakllari va asosiy ishtirokchilari.....	5
2. Xalqaro kredit, uning mohiyati. Xalqaro kredit munosabatlari.....	10
3. Xalqaro kreditning tamoyillari, shakllari va turlari.....	17
4. O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda xalqaro valyuta-kredit munosabatlarining o'rni.....	28
5. O'zbekistonning xalqaro valyuta kredit mulosabatlarida rolini oshirish yo'nalishlari.....	41
Xulosa.....	46
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	48

Kirish

Kurs ishi mavzusining dolzarbligi. O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy maydondagi nufuzi va mavqeyi sezilarli darajada va muntazam oshib bormoqda.

Hozirgi davrda dunyo mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti o'zining ma'no-mazmuni jihatidan oldingi bosqichlardan keskin farq qiladi. Bunda eng asosiy va muhim jihat – milliy iqtisodiyotlarning tobora integratsiyalashuvi va globallashtiruvining kuchayib borishidir. Ayni paytda bu jarayonlar xalqaro miqyosda moliya, kredit va valuta munosabatlariga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Xalqaro valuta-kredit munosabatlari – bozor iqtisodiyotining tarkibiy qismi va eng murakkab jarayonlaridan biridir. Ko'plab omillar ta'sirida xalqaro valuta-kredit munosabatlari murakkablashmoqda va hozirgi sharoitda o'zining o'ta beqarorligi bilan ahamiyatlidir.

Bugungi kunda davlat va xo'jalik yurituvchi subyektlarning tashqi iqtisodiy aloqalarini pul bozori yoki valuta bozori, undagi valuta operatsiyalarining rivojisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu sababli xorijiy valutarlar bilan bog'liq jahon tajribasini o'rganish O'zbekiston va Markaziy Osiyoning boshqa davlatlarida shakllanayotgan bozor iqtisodiyoti uchun katta ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro valyuta-kredit munosabatlarinign rivojlanishi o'z navbatida investitsiyalar hajmining o'sishiga, mamlakatning tobora integratsiyalashuvini oshishiga olib keladi. Mamlakatimizda ham xalqaro valyuta-kredit munosabatlari tobora rivojlanib bormoqda.

Bu to'g'risida davlatimiz rahbari Sh.M. Mirziyoyev ham “Xalqimizning fidokorona mehnati bilan 019-yil – “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili”da salmoqli natijalarga erishdik. Barcha sohalardagi ijobiy natijalar qatorida investitsiyalar hajmi ham sezilarli darajada oshdi.

Ayniqsa, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar 4,2 milliard dollarni tashkil etib, 018-yilga nisbatan – mana shu raqamga e'tiboringizni qaratmoqchiman – 3,1 milliard dollarga yoki 3,7 barobar o'sdi. Investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 37 foizga yetdi.

Mamlakatimiz ilk bor xalqaro kredit reytingini oldi va jahon moliya bozorida 1 milliard dollarlik obligatsiyalarini muvaffaqiyatli joylashtirdi. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti tomonidan O'zbekistonning kreditga doir tavakkalchilik reytingi oxirgi 10 yilda birinchi marta yaxshilandi" deya ta'kidlaganlar¹.

Yuqorida bildirilgan fikrlar mazkur kurs ishining dolzarbligini asoslab beradi.

Kurs ishining maqsadi xalqar-valyuta kredit munosabatlarini tartibga solinishini, uni mamlakatimizda tobora rivojlantirilishi bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiya va takliflar ishlab chiqishdan iborat. **Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:**

- xalqaro valyuta-kredit munosabatlari mazmun-mohiyatini, ularning shakllarini ochib berish;
- xalqaro valyuta-kredit munosabatlari bo'yicha mavjud qarashlarni tadqiq etish;
- xalqaro kredit tamoyillari, ularning shakllari va turlarini o'rganish;
- O'zbekistonda iqtisodiyoti rivojlanishida xalqaro valyuta-kredit munosabatlarini tutgan o'rnini tahlil qilish;

Kurs ishining obyekti xalqaro valyuta kredit munosabatlari va O'zbekistonning xalqaro valyuta kredit munosabatlaridagi o'rnini hisoblanadi.

Kurs ishining predmeti mamlakatimizda xalqaro valyuta-kredit munosabatlarini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni o'z ichiga oladi.

Kurs ishining nazariy va uslubiy asoslarini xorijlik yetakchi olimlarning xalqaro valyuta-kredit munosabatlarini tartibga solinishi, uning zaruriyati va ahamiyati borasidagi amaliy ishlanmalari, ilmiy maqola va konseptual nazariyalari tashkil etadi.

Kurs ishining tuzilishi. Ushbu Kurs ishi kirish, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'xati va o'zaro mazmunan bog'langan 5 ta rejadan iborat bo'lib umumiy hajmda 49 betni tashkil etadi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 24 yanvar. <https://president.uz/oz/lists/view/3324>

1. Valyuta munosabatlari tushunchasi, ularning shakllari va asosiy ishtirokchilari

Xalqaro valuta munosabatlari – valutaning jahon xo'jaligida amal qilishi borasida shakllanadigan va milliy xo'jaliklar faoliyati natijalarining o'zaro almashuviga xizmat ko'rsatadigan ijtimoiy munosabatlar yig'indisidir². Yoki davlatlar, jahon valuta bozorining subyektlari, muayyan davlatning rezident yoki norezident shaxslari orasida valutilarni sotish, sotib olish, majburiyatlarni bajarish va boshqa shu kabi jarayonlarda vujudga keladigan munosabatlardir³.

Valuta munosabatlarining paydo bo'lishi, o'zgartirilishi yoki tugatilishining huquqiy asoslari xalqaro kelishuvlar hamda davlatning ichki qonun va qoidalari hisoblanadi.

Valuta munosabatlari nisbatan mustaqil munosabatlar bo'lgani holda to'lov balansi, valuta kursi, hisob-kitob operatsiyalari orqali Jahon iqtisodiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Valuta munosabatlarining holati quyidagilarga bog'liq bo'ladi:

- milliy va jahon iqtisodiyotining rivojlanganlik darajasi;
- siyosiy ahvol;
- jahon bozorida davlatlararo munosabatlar borasidagi muammolar va ularning rivojlanish tendensiyalari.

Valuta munosabatlarining asosiy ishtirokchilari sifatida xalqaro moliyaviy tashkilotlar, davlatlar, davlatlarning rezident va norezident shaxslari maydonga chiqadi.

Rezident shaxslar – bu muayyan davlat hududida yashayotgan va faoliyat ko'rsatayotgan hamda shu davlatning fuqarosi bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Norezident shaxslar – bu muayyan davlat hududida yashayotgan va faoliyat ko'rsatayotgan, lekin shu davlatning fuqarosi bo'lmagan yuridik va jismoniy

² Красавина Л.Н.Международные валютно-кредитные и финансовые отношения. —М.: «ФИС». 2001 г. С. 1.

³ Платонова И.Н. Валютный рынок и валютное регулирование. -М.: «ФИС». 2004. С. 67.

shaxslardir. Masalan, elchixonalar, vakolatxonalar, chet el firma va kompaniyalarining filiallari va shu kabilar.

Shu bilan birga, bu yerda shuni ta'kidlab o'tmoq lozimki, valuta munosabatlarning faol ishtirokchilaridan biri bu – tijorat banklaridir.

Tijorat banklari milliy, hududiy va jahon valuta bozorlarida nafaqat o'z manfaatlari, balki o'z mijozlari manfaatlarining himoyachisidir. Jahonning yirik tijorat banklari o'z mijozlarining topshiriqlarini yaxshi bajarish, ularning moliyaviy manfaatlarini himoya qilish va o'z tijorat maqsadlari uchun jahon moliya bozorining yirik markazlarida o'z filiallarini ochgan.

Tijorat banklarida va mijozlarida turli sabablarga ko'ra hamda turli maqsadlarda xorijiy valutaga ehtiyoj paydo bo'ladi. Masalan, agar tijorat banking mijozi eksportyor bo'lsa, u xorijiy valutada tushum oladi va valuta kursining tebranishi oqibatidagi risklarni hisobga olgan holda, unda shu xorijiy valutada olingan tushumni himoyalash zaruriyati tug'iladi. Shu sababli, u mazkur eksport tushumini sug'urtalash maqsadida o'z bankiga murojaat etadi. Yoki bank mijozi importyor bo'lsa, kontragenti bilan tuzgan o'zaro shartnoma shartlariga muvofiq, belgilangan muddatda eksportyor bilan hisob-kitob qilish uchun unga muayyan miqdorda xorijiy valuta zarur bo'ladi. Shunga muvofiq, mijoz o'z bankiga xorijiy valuta sotib olish maqsadida murojaat qiladi.

Yuqoridagilardan tashqari tijorat banking xorijiy valutaga bo'lgan o'z zaruriy ehtiyojlari mavjud. Bularga masalan, jahon valuta bozorida oldi-sotdi baholarining farqi sifatida foyda olish maqsadida xorijiy valutalarni sotib olish va sotish, valuta kursining tebranishi oqibatida vujudga keladigan valuta risklarining oldini olish maqsadida xejerlash bilan bog'liq turli valuta operatsiyalarini amalga oshirish kabi harakatlarni keltirish mumkin.

Har qanday davlatda valuta munosabatlari davlat tomonidan tartibga solinadi. Bunda tartibga solish turli qonunlar yordamida amalga oshadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi hududida valuta munosabatlarini tartibga solish maqsadida 1993-yil 7-mayda «O'zbekiston Respublikasi hududida valuta munosabatlarini tartibga solish to'g'risida»gi Qonun qabul qilingan. 003-yil

dekabrda ushbu qonun qayta qabul qilingan. Bundan tashqari, mazkur qonunlar harakatidan kelib chiqqan holda, tijorat banklari, jismoniy shaxslar va xo'jalik yurituvchi subyektlarning tashqi iqtisodiy faoliyatini tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qator me'yoriy hujjatlari va yo'riqnomalari mavjud.

Zamonaviy sharoitda valuta jarayonlarini tartibga solish valuta cheklovlari va soliqlarni hisobga olmagan holda valuta kurslarini tartibga solish bilan bog'liq. Bunday tartibga solishning amaliy instrumentlari davlatda unchalik ko'p emas, ular rasmiy intervensiya deb atalmish valuta bozori mexanizmiga to'g'ridan to'g'ri aralashuv va pul-kredit munosabatlarini tartibga solishning an'anaviy uslublaridan iborat.

Valuta jarayonining muvozanatsizligi, valuta kurslarining nazoratsiz ko'tarilishi va pasayishi iqtisodiyotga tobora kuchayib boruvchi salbiy ta'sir ko'rsatadi. Jumladan:

- birlamchi ehtiyoj mollari bahosining oshishiga va mehnatkashlar iqtisodiy ahvolining yomonlashuviga olib keluvchi import qilinayotgan inflyatsiya;
- milliy valuta kursining nisbatan o'sganligi oqibatida mamlakat tashqi raqobatdoshligining pasayishi;
- valuta zararlari oqibatida banklar va kompaniyalar moliyaviy holatining muvozanatsizligi;
- rasmiy iqtisodiy siyosat samaradorligining pasayishi va shu kabilar.

Valuta muvozanatsizligini davlat tomonidan cheklash bilan bog'liq harakatlari amaliyotda qator qiyinchiliklarga duch keladi: barcha iqtisodiy jarayonlar o'zaro chambarchas bog'liq va hamma vaqt u bilan bog'liq qo'shimcha salbiy oqibatlar bo'lish ehtimoli mavjud – davlat ma'lum bir jarayonlarni tartibga solgan holda boshqa jarayonlarga salbiy ta'sir etishi mumkin.

Valuta bozorida davlat vakillari sifatida ko'p hollarda zimmasiga mamlakatda pul-kredit siyosatini amalga oshirish vazifasi yuklatilgan Markaziy bank maydonga chiqadi. Markaziy banklar hukumat organlariga valuta operatsiyalari bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishi mumkin yoki milliy valutaga bo'lgan talab va taklif balansini

o'zgartirish maqsadida xorijiy valutalarning oldisotdi operatsiyalari bilan ham shug'ullanishi mumkin.

Hozirgi sharoitda rasmiy valuta intervensiyasi deganda davlatning valuta bozoridagi valutaga bo'lgan talab va taklifni hamda kurslar nisbatini o'zgartira oladigan, bir maqsadga yo'naltirilgan faoliyati tushuniladi. Biroq amaliyotda valuta intervensiyasi tushunchasi xorijiy valutaning milliy valutaga nisbatan oldi-sotdisi bilan bog'liq rasmiy shartnomalardan iborat (shu jumladan, davlat tashkilotlariga xizmat ko'rsatish, Xalqaro Valuta Fondi bilan munosabatlar, valuta zaxiralari bo'yicha foiz to'lovlari, xorijiy valutada olingan qarzlar va shu kabilar).

Har qanday intervensiyaning hozirgi paytdagi yakuniy maqsadi – valuta bozorida muvozanatli sharoitni ta'minlash, valuta kurslarining keskin tebranishi ehtimolini bartaraf qilishdir. O'z navbatida, valuta bozorining barqarorligi mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati va yalpi iqtisodiyotining rivojlanishini ta'minlashi lozim. Har qanday davlat o'z iqtisodiyotining konkret xususiyatlaridan, tashqi iqtisodiy aloqalarda ishtirok etishi uchun uning ochiqlik darajasidan kelib chiqqan holda o'z valuta intervensiyasining vazifalarini belgilaydi.

Amaliyot shuni ko'rsatib turibdiki, hozirgi sharoitda davlatlar valuta bozoridagi o'z faoliyatida qisqa va uzoq muddatli maqsadlarni ko'zlamoda. Shu bilan birga, ular tomonidan valuta bozoridagi kursning harakat tendensiyasini o'zgartirishga urinishlar qilinmoqda. Markaziy bank tomonidan mamlakat valuta zaxiralari bilan operatsiyalar o'tkazishda ko'plab davlatlarning ehtiyotkorligi ko'zga tashlanmoqda.

Valuta tizimi – milliy qonunchilik yoki davlatlararo kelishuvlar bilan mustahkamlangan valuta munosabatlarini tashkil etish va muvofiqlashtirish shaklidir⁴.

Valuta tizimi – davlatlararo shartnomalar va kelishuvlar bilan belgilanadigan, xalqaro valuta munosabatlarini tashkil etishning davlat-huquqiy shaklidir⁵.

⁴ Красавина Л.Н. Международные валютно-кредитные отношения. -М.: «ФиС». 2001 г. С. 39.


⁵ Бержанов С.А. Валютная система, валютный рынок и валютные операции. - Нукус. 1996 г. С. 53.

Valuta tizimi – xo'jalik aloqalarining baynalmilallashuvi asosida tarixan shakllangan, valuta amali bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar yig'indisidir.

Valuta tizimini valuta, valuta munosabatlari, valuta munosabatlarini amalga oshiruvchi va ularni tartibga soluvchi hamda muvofiqlashtiruvchi organlar yig'indisi sifatida ham tasavvur qilish mumkin.

Valuta tizimining mohiyati, tashkil etilish shakllari va o'rni jamiyat iqtisodiy tizimi bilan belgilanadi.

Valuta qonunchiligi – mamlakat ichki valuta qiymatliklari bilan, bir mamlakat tashkilotlari va fuqarolari hamda boshqa mamlakat tashkilotlari va fuqarolari o'rtasidagi shartnomalarni hamda mamlakat ichkarisidan xorijga va xorijdan mamlakat ichkarisiga milliy va xorijiy valutalar hamda boshqa valuta qiymatliklarini olib kirish, olib chiqish, o'tkazish yo'li bilan amalga oshirilishini tartibga soluvchi qonuniy me'yorlar yig'indisidir.



1-rasm. Valuta tizimining asosiy shakllari⁶

Valuta tizimi davlatlararo bitim yoki milliy qonunlarga muvofiq valuta munosabatlarini tashkil qilish va boshqarish shakllarini o'z ichiga oladi. Valuta tizimining quyidagi shakllari farqlanadi: milliy, jahon va hududiy valuta tizimlari.

Milliy valuta tizimi mamlakat pul tizimining tarkibiy qismi bo'lib, valuta munosabatlarining yig'indisi sifatida maydonga chiqmaydi, balki ushbu munosabatlarning faqat qonunchilik hujjatlari bilan tashkil etilish tartibini belgilaydi. Valuta munosabatlarini tashkil etishning bunday tartibi, birinchi navbatda, valuta tizimi elementlarini belgilashni o'z ichiga oladi.

⁶ Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari. Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma / Mualliflar: Xudoyberdiev Z.Y., Qahhorov, Z.Y., Umarov Z.A., Sohbov O.Q. – T.: "IQTISOD – MOLIYA", 2013. – 9 b.

Milliy valuta tizimining qonunchilik asosida belgilanadigan elementlariga quyidagilar kiradi:

- 1) milliy valuta va uning nomi;
- 2) milliy valuta paritetini belgilash;
- 3) milliy valutaning konvertatsiya shartlari;
- 4) milliy valuta kursining rejimi;
- 5) xalqaro kredit muomala vositalaridan foydalanishni chegaralash (reglamentatsiya);
- 6) xalqaro zaxira aktivlari tarkibiy qismlari o'rtasidagi nisbatni aniqlash;
- 7) mamlakat xalqaro hisob-kitoblarini chegaralash (reglamentatsiya);
- 8) milliy valuta va oltin bozorlari faoliyati rejimi;
- 9) valuta cheklovlarini o'rnatish tartibi;
- 10) valuta munosabatlariga xizmat ko'rsatuvchi va ularni muvofiqlashtiruvchi milliy organlar maqomi.

Yuqorida zikr etilgan elementlar yig'indisi xalqaro valuta-kredit va hisob-kitob munosabatlarini amalga oshirish uchun davlat tomonidan belgilanadigan valuta mexanizmidir.

Milliy valuta va uning nomi milliy valuta tizimining asosi hisoblanadi. Milliy valuta paritetini belgilash.

Valuta pariteti – ikki valuta orasidagi qonuniy asosda belgilangan nisbat. Monometallizm davrida (oltin yoki kumush) valuta kursining asosi tanga pariteti hisoblanadi. Tanga pariteti – turli mamlakatlar pul birliklarini o'zidagi metall sig'imiga ko'ra o'zaro solishtirishdir. Tanga pariteti tushunchasi valuta pariteti tushunchasi bilan mos keladi.

2. Xalqaro kredit, uning mohiyati. Xalqaro kredit munosabatlari

Xalqaro kredit kapitalizm davrida paydo bo'ldi va kapital yig'ishning birinchi qulay dastagi bo'ldi. Uning rivojlanishida ishlab chiqarishning milliy ramkalaridan chetga chiqishi, xo'jalik aloqalarining kuchayishi rivojlanishi, xalqaro kapitalning umumiylishi kreditning ob'ektiv asosi bo'ldi. Xalqaro kreditning o'sish tempi ishlab

chiqarish va tashqi savdo-sotiq templarini bir necha marta o'sishga ta'sir etadi. Xalqaro kredit bozor sub'ektlarining daromad, foyda olishiga sharoit yaratib, iqtisodiy talab qonunida asosiy muhim rolni o'ynaydi. Xalqaro kredit daromad, narx, pul, valyuta kursi, to'lov balansi va boshqalar kabi iqtisodiy kategoriyalari bilan bog'liqdir.

Xalqaro kredit - bu ssuda kapitalining xalqaro miqyosida harakati bo'lib, bu harakat tovar va valyuta ko'rinishidagi mablag'larni qaytarib berishlik, muddatlilik va xaq to'lashlik asosida berish bilan bog'liqdir.

Xalqaro kredit munosabatlarida qatnashuvchi sub'ektlar bo'lib, tijorat banklari, markaziy banklar, davlat organlari, xukumatlar, yirik korporatsiyalar hamda xalqaro va regional moliya-kredit tashkilotlari hisoblanadilar.

Garchi xalqaro kredit tashqi oborotda tovarlarning, xizmatlarning, kapitalning harakat qilishni ta'minlasa ham, milliy chagaradan tashqaridagi tovarlarga bo'lgan munosabatlarda ssuda kapitalining harakati aniklanadicha mustaqildir.

Xalqaro kredit bir davlat, shu davlat banki, huquqiy shaxsi tomonidan ikkinchi bir davlatga, uning banklariga, boshqa huquqiy shaxslariga muddatlilik va to'lovlilik asosida beriladigan kredit hisoblanadi. Xalqaro kredit davlat va xalqaro institutlar ishtirok etgan munosabatlarda pul (valyuta) shaklida, tashqi savdo faoliyatida esa tovar shaklida bo'lishi mumkin. Xalqaro kredit qo'yidagi xususiyatlari bilan harakterlanadi (2-rasm):


- qarz oluvchi va qarz beruvchi sifatida davlat, tashkilot va muassasalar, xuquqiy shaxslar, xalqaro valyuta kredit tashkilotlari qatnashadilar;

- qarzga olingan mablag'lar qarz oluvchi mamlakat tomonidan daromad keltiruvchi kapital sifatida ishlatiladi;

- qarz beruvchi mamlakatga to'lanadigan ssuda foizining manbasi qarz oluvchi mamlakat aholisi tomonidan yaratilgan milliy daromad hisoblanadi.

Xalqaro kredit davlat va xalqaro institutlar ishtirok etgan munosabatlarda pul (valyuta) shaklida, tashqi savdo faoliyatida esa tovar shaklida bo'lishi mumkin. Shuningdek, xalqaro kredit chet el obligatsiyalari, chet-el korxonalari aksiyalari va

boshqa qimmatli qog'ozlariga foyda olish maqsadlarida kapital qo'yish shaklida ham bo'ladi.



2-rasm. Xalqaro kreditning o'ziga xos xususiyatlari⁷

Xalqaro kredit xalqaro iqtisodiy munosabatlarda ssuda kapitalining o'ziga xos harakatini o'zida ifoda etuvchi quyidagi funksiyalarni bajaradi;

1. Kengaytirilgan takror ishlab chiqarishda ehtiarning qondirilishini ta'minlash uchun ssuda kapitalarini mamlakatlararo qayta taqsimlaydi. Xalqaro kreditning mexanizmi orqali ssuda kapitali foydani ta'minlash maqsadlarida yurgan iqtisodiy agentlar afzal ko'radigan sohalarga intiladi. Shu bilan birga kredit milliy daromadni o'rtacha daromadga tenglashtirilga va uning massasini ko'paytirilishiga yordam beradi.

2. Muomala harajatlarini tejash sohasida xalqaro hisob-kitob yo'li, hamda naqd pulsiz to'lovlarning rivojlantirilishini va tezlashtirish yo'llari orqali xaqiqiy pullarni (oltin, tushumlarni) kreditga almashtiradi. Yana naqd valyuta oborotini xalqaro kredit operatsiyalariga almashtiradi. Xalqaro kreditning bazasida xalqaro hisob-kitoblarning kredit vositalari, ya'ni veksel, cheklar hamda bank o'tkazmalari, depozit sertifikatlar va x.o. yuzaga keldi. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarda ssuda

⁷ Tojiyev R.R. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari. Darslik. - T.: TDIU, 2009 y. 30 b.

kapitalining muomala vaqtini tejalishi ishlab chiqarish kapitalining harakat qilish vaqtini ko'paytiradi va ishlab chiqarish hamda daromadning o'sishini ta'minlaydi.

3. Kapitalning konsentratsiyalashuvini va markazlashuvini tezlashtiradi. Chet el kreditlarini jalb etish tufayli qo'shimcha qiymatni kapitallashtirish jarayoni tezlashtiriladi (tezl), individual jamg'arishning chegaralari olib tashlanadi yoki suriladi, ir mamalkatning tadbirkorlarining kapitallari boshqa mamlakatning (tadbirkorlarini k) vositalarini ularga qo'shilishi hisobiga ko'paytiriladi. Qadimdan xalqaro kredit individual korxonalarining aksionerlik jamiyatiga aylantirilishida va yangi firmalarning yaratilishidan bir omil bo'lib xizmat qiladi.

Kredit ayrim xollarda kapitalning boshqa davlatlarning mehnati va mulki sifatida eplab sarf qilinishiga imkon beradi. Imtiyozli xalqaro kreditlar yirik kompaniyalarning va qiyin ahvolda bo'lgan kichik va o'rtacha firmalarning ssud kapitallarini dunyo bozoriga kirishiga va kapitalning bir joyda to'planishini va markazlashuvini kuchaytirishga yordam beradi.

Xalqaro kredit funksiyalarining mazmuni bir-biriga teng emas va milliy hamda dunyo xo'jaligining rivojlanishi bilan almashib turadi. Zamonaviy sharoitlarda xalqaro kredit iqtisodiyotini boshqarib ko'rish funksiyasini bajaradi va o'zi boshqarish ob'ekti bo'lib hisoblanadi.

Xalqaro valyuta-kredit tashkilotlaridan olingan kreditlar xususiy tijorat banklardan olingan kreditlardan (bu kreditlar bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi yiliga 7 - 9 % ni tashkil qiladi) arzon tushadi.

Xalqaro kredit aloqalarida foiz stavkasi milliy kredit tizimidagi foiz darajasiga bog'liq holda belgilanadi. Ssuda foiziga t'sir etuvchi omillarning xalqaro-valyuta va moliya-kredit munosabatlari bilan bog'liqligi tufayli foiz stavkasining darajasi milliy stavkalardan birmuncha farq qiladi.

Jahon bozoridagi raqobatchilik natijasida foiz stavkalarining tez-tez o'zgarishi milliy va mintaqaviy iqtisodiyotda beqarorlik, inflyatsiyaning kuchayishi, valyuta kursining tebranishi kabilar bilan izohlanadi.

Xalqaro kredit aloqalarida foiz stavkasiga quyidagi omillar ta'sir qiladi:

- ✓ qarz oluvchining mamlakatdagi valyuta, moliya-kredit, iqtisodiy va siyosiy ahvol;
- ✓ loyiha riski harakteri;
- ✓ kredit manbalari;
- ✓ kredit qiymatini tartibga solish bo'yicha xalqaro kelishuvlar;
- ✓ foiz stavkasi turlari (suzib yuruvchi, qat'iy va aralash);
- ✓ raqobatdagi takliflarning mavjudligi;
- ✓ kredit muddati;
- ✓ inflyatsiya sur'ati;
- ✓ kreditning tijorat operatsiyalariga bog'liqligi;
- ✓ jahon va milliy bozorda ssuda kapitalining holati;
- ✓ qarz oluvchi va kreditorning maqomi, nufuzi va moliyaviy holati;
- ✓ kreditning ta'minot sifati;
- ✓ kredit bo'yicha sug'urta qoplamasining mavjudligi;
- ✓ qarz oluvchining olingan kreditdan kelishilgan muddatda foydalanish majburiyatining mavjudligi;
- ✓ tijorat bitimlariga nisbatan kredit kelishuvi tuzilgan vaqt;
- ✓ bitim summasi;
- ✓ kredit va to'lov valyutasi;
- ✓ valyuta kursi dinamikasi va boshqalar.

Xalqaro kredit o'zaro bog'liq funksiyalarining bajarilishda ikki xil rol ni o'ynaydi: ijobiy va salbiy.

Xalqaro kreditni ijobiy roli - takror ishlab chiqarish protsessini to'xtovsiz ta'minlash va uni kengaytirish yo'li bilan ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishning tezlashtirishdan iboratdir. Bunda ularning o'zaro bog'liqligi namayon bo'ladi. Xalqaro kredit ta'sir ko'rsatuvchi tashqi iqtisodiy aloqalarda va oxiri hisob-kitobda takror ishlab chiqarishda bog'lovchi qism va uzatma mexanizm rolini o'ynaydi.

Quyidagi yo'nalishlarda xalqaro kredit takror ishlab chiqarish protsessini tezlashtirishga yordam beradi.

Birinchiidan, kredit mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyatini ruyobatlantiradi. Shu orqali bozorda kanyukturani quvvati uchun qo'shimcha talab vujudga keladi.

Kredit tashqi savdo-sotiq xalqaro normasi bo'lib qoldi, ayniqsa, uzoq tayyorlashi davrini, iste'molni va yuqori qiymatni o'zida mujassamlashtirgan tovarlar uchun bo'ldi. Chet el mamlakatlardagi korxonalarining qurilishi ham import asbob-uskunalardan, ayniqsa texnikaviy va energiyaviylardan foydalanish uchun haq to'lashlari ham kredit hisobiga amalga oshirmoqda. Zamonaviy sharoitlarda kreditlarning kreditor mamlakatlaridan eksportni yetkazib berishi bilan bog'langanligi qaytadan vujudga kelmoqda. Shu bilan birga, xalqaro kredit kreditor mamlakatlari firmalarining raqobatbardoshligini oshirishda vositachi bo'lib ham xizmat qiladi.

Ikkinchiidan, xalqaro kredit chet el xususiy investitsiyalarga qulay sharoit yaratib beradi, negaki kreditor mamlakatlarning investorlariga imtiyoz berish haqidagi talablari bilan doim bog'lanib turadi;

infrastrukturani yaratish uchun qo'llaniladi kerakli korxonalarining ishlab turishi uchun, shu hisobdan chet el va qo'shimcha, xalqaro kapital bilan bog'langan milliy korxonalar, banklarning xolatlarini mustahkamlashga yordam beradi.

Uchinchiidan, kredit mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalarga xizmat qiluvchi xalqaro hisob-kitob va valyuta operatsiyalarning uzluksizligini ta'minlaydi.

To'rtinchiidan, kredit tashqi savdo-sotiqda va mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyatini boshqa ko'rinishlarida iqtisodiy foydali uni amalga oshiradi.

Bozor iqtisodiyotining rivojlanishida xalqaro kreditning salbiy roli uni qarama-qarshiligining keskinlashuchidan iboratdir. Xalqaro kredit mamlakatlararo ssuda kapitalini qayta taqsimlab, ishlab chiqarishni ko'paytirish va uning kamayish davridan sakrab o'tishga yordam qilib, tovarlarning ortiqcha ishlab chiqarilishini jadallashtiradi.

Xalqaro kredit eng foydali tarmoqlarining rivojlanishini yengillashtirib va chet-el kapitalini jalb etmaydigan tarmoqlarining rivojlanishini sekinlashtirib, umumiy takror ishlab chiqarishning nomutanosibligini kuchaytiradi.

Mamlakatlarning kredit siyosatini jaxon bozorlarida kreditor-mamlakatlarning holatini mustahkamlash vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Birinchi, xalqaro kredit kreditor mamlakatlarning xolatini kuchaytirib, qarzdor mamlakatlardan tushgan tushumlarni o'tkazish uchun qo'llaniladi. Shu vaqtning o'zida yilda bir bo'ladigan to'lovlar, foiz bilan qaytariladigan ssudalar, jamiyatning sof foydasini kengaytirilishini shiruvchilar, jamg'armani tashkil etish hisobidan ishlab chiqarishni ta'minlovchilarga va qarzdor mamlakatlarda shu jamg'armani tashkil etadigan manbalarga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ikkinchi, Xalqaro kredit kreditor mamlakatlarning iqtisodiy-siyosiy rejimlari uchun qarzdor mamlakatlarda qulay ratuvanlikni va mustahkamlanuvchanlikni tashkil etadi.

Xalqaro kredit moliyalashtirishning manbalaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

Xalqaro kredit kapitalning aylanishini hamma bosqichlarida qatnashadi:

- pul kapitalining ishlab chiqarish yo'li bilan import asbob-uskunalariga, xom-ashyoga, yoqilg'iga aylanishida;

- ishlab chiqarish protsessida tugatilmagan ishlab chiqarish formasini kreditlashda;

- dunyo bozorida tovarlarning realizatsiyasida qatnashadi.

Xalqaro kreditning manbalari bo'lib, korxonalarining, davlatning pul kapitali, xususiy sektor yoki banklar tomonidan mobilizatsiya qilingan pul kapitallari xizmat qilishadi.

Xalqaro kredit ichki davlatlararo ligratsiyasidan farq qilib, shu manbalarning boshqa mamlakatlarni jalb etilishi hisobidan kengaytiradi. Takror ishlab chiqarishda xalqaro kreditga ob'ektiv ehtiyoj tug'iladi. Bu quyidagi narsalar bilan bog'liqdir:

- 1) Xo'jalikda vositalarning aylanishi bilan;
- 2) ishlab chiqarishning va realizatsiyaning xususiyatlari bilan;
- 3) tashqi iqtisodiy shartnomalarining muddatini farqlari bilan;
- 4) ishlab chiqarishning kengaytirish uchun kapital qo'yishning zaruriyligi bilan.

Xalqaro kredit deganda, xalqaro iqtisodiy munosabatlar sohasida ssuda kapitalining harakati tushuniladi. Kredit munosabatlarining sub'ektlariga korxonalar, banklar, davlat muassasalari, xalqaro va mintaqaviy valyuta va moliya-kredit tashkilotlari kiradi. Kredit ob'ekti bo'lib esa davlatlararo miqyosda beriladigan kredit hisoblanadi.

Xalqaro kreditning vujudga kelishi va amal qilishi jahon miqyosida ishlab chiqarish va ayirboshlashning milliy chegaralardan chiqishi, xo'jalik aloqalarining baynalminallashuvi, kapitalning markazlashuvi bilan chambarchas bog'liq. Butun dunyo xo'jalik aloqalarining intensivlashishi va globallashuvi, xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashishi natijasida xalqaro kredit hajmining keskin oshishiga va undan foydalanish sohalarini kengayishiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Keyingi yillarda xalqaro kreditning ishlab chiqarish va tashqi savdo hajmining ortib borishidan tezroq o'sishi ham bundan dalolat beradi.

Xalqaro kredit iqtisodiy kategoriya sifatida bozor iqtisodiyoti qonunlariga muvofiq tarzda hamda foyda, baho, valyuta kursi kabi boshqa kategoriyalar bilan uzviy bog'liq holda amal qiladi.

Xalqaro kreditning manbalari bo'lib korxonalarining vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'lari, aholi-mablag'lari, davlatning pul jamg'armalari va xalqaro muassasalarning valyuta mablag'lari xizmat qiladi.

Tovar ishlab chiqarish jarayonida u yoki bu tarmoq, korxonalar va xo'jaliklarda valyuta mablag'lariga ehtiyojning yuzaga kelishi xalqaro kreditdan foydalanishni taqozo etadi. Xalqaro kredit vositasida xalqaro miqyosda tovar, xizmat va kapital harakatining tashqi muomalasi tezlashadi va kengayadi.

3. Xalqaro kreditning tamoyillari, shakllari va turlari

Xalqaro kreditga bo'lgan talab qaysi usulda va muddatda kim tomonidan qondirilishiga, shuningdek, qarz oluvchilarga taklif qilinishiga qarab xalqaro kredit bir necha turlarga bo'linadi.

Xalqaro davlat krediti ikki tomonlama kelishuv asosida rivojlangan davlatlar tomonidan rivojlanayotgan davlatlarga tovar yoki valyuta shaklida, foiz to'lash yoki foiz to'lamaslik sharti bilan, uzoq yoki qisqa muddatga beriladi.

1-jadval

Xalqaro kredit turlari⁸

T/r	Turkumlash belgilari	Xalqaro kredit turlari
1	Kreditlash harakteri bo'yicha	<ul style="list-style-type: none"> • davlatlararo kreditlar • xususiy kreditlar • firma kreditlari
2	Kreditlash shakli bo'yicha	<ul style="list-style-type: none"> • davlat krediti • bank krediti • tijorat krediti
3	Tashqi savdo tizimida tutgan o'rni bo'yicha	<ul style="list-style-type: none"> • eksportni kreditlash • importni kreditlash
4	Kreditlash muddati bo'yicha	<ul style="list-style-type: none"> • qisqa muddatli (1 yilgacha) • o'rta muddatli (1-5 yilgacha) • uzoq muddatli (5 yildan ortiq)
5	Kreditlash ob'ekti bo'yicha	<ul style="list-style-type: none"> • tovar krediti • valyuta krediti
6	Ta'minlanganlik darajasi bo'yicha	<ul style="list-style-type: none"> • tovar-moddiy boyliklar bilan ta'minlangan kreditlar • hujjatlar bilan ta'minlangan kreditlar

Xalqaro bank kreditlarining:

- ✓ bank eksport kreditlari (xorijiy importyorlarga xususiy tijorat banklari, maxsus tashqi savdo banklari tomonidan beriladigan kredit);
- ✓ yevrokredit (yirik tijorat banklari tomonidan yevrovalyuta bozori resurslari hisobidan yevrovalyutada, ikki yildan o'n yilgacha bo'lgan muddatda, o'zgaruvchi foiz stavkada kreditlar berish) kabi turlari mavjud (1-jadval).

⁸ Galanov V.A. Finansi, Denejnoe obrashenie i kredit: Uchebnik. – M.: FORUM: INFRA-M, 2006. – 416 s.

Qisqa muddatli xalqaro kreditlarni - xalqaro valyuta fondi, o'rta muddatli kreditlarni - Jahon rivojlanish va taraqqiyot banki, uzoq muddatli (yigirma yilgacha) kreditlarni - Yevropa rivojlanish va taraqqiyot banki berishlari mumkin.

Xalqaro kredit umumjahon munosabatlarining maxsus shakli bo'lib, unda davlatlar, transmilliy korporatsiyalar, xalqaro moliya-kredit tashkilotlari va yirik banklar ishtirok etadilar.

Xalqaro kreditning mohiyati bir yoki bir necha mamlakatlar, xalqaro moliya-kredit tashkilotlari tomonidan boshqa mamlakatlarga milliy iqtisodiyotning alohida tarmoqlarini rivojlantirish va o'zaro xo'jalik aloqalarini kengaytirish uchun tovarlar yoki pul shaklidagi resurslarni vaqtincha foydalanishga berishdan iboratdir.

Xalqaro kredit o'zaro bog'liq funksiyalarni bajarish orqali ikki yoqlama, ya'ni ijobiy va salbiy rol o'ynaydi.

Xalqaro kreditning ijobiy roli takror ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlanishi hamda uning kengayishi orqali ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishining tezlashishida o'z aksini topadi. Ushbuda ularning o'zaro aloqasi aks etadi. Xalqaro kredit tashqi iqtisodiy aloqalarga va pirovard oqibatda takror ishlab chiqarishga ta'sir etuvchi bog'lovchi bo'g'in hamda uzatkich mexanizmi rolini o'ynaydi. Ishlab chiqarish o'sishining mahsuli bo'lgani holda xalqaro kredit bir vaqtning o'zida uning zaruriy sharti va katalizatori bo'lib ham hisoblanadi. U ishlab chiqarish va muomala jarayonlarining baynalmilallashuvi, jahon bozorining shakllanishi hamda rivojlanishiga ko'maklashadi va xalqaro mehnat taqsimotini chuqurlashtiradi. Xalqaro kredit takror ishlab chiqarish jarayonini quyidagi yo'nalishlar bo'yicha tezlashishiga ko'maklashadi: Mamlakatlarning kredit siyosati jahon bozorlarida kreditor mamlakat mavqelarini mustahkamlash vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Birinchidan, xalqaro kredit kreditor mamlakatlar mavqelarini o'stirgan holda olingan foydalarni qarzdor mamlakatlardan o'tkazish uchun ishlatiladi. Shu bilan birgalikda ssudalarni foizlar bilan qaytimining jamiyat sof daromadining ma'lum bir hajmidan oshgan yillik to'lovlari qarzdor mamlakatlarda mazkur jamg'armalarning shakllanish manbalariga salbiy ta'sir etadi.

Ikkinchidan, xalqaro kredit qarzdor mamlakatlarda kreditor mamlakatlar uchun qulay bo'lgan iqtisodiy va siyosiy rejimlarning yaratilishi hamda mustahkamlanishiga ko'maklashadi. Ishlab chiqarish va almashuvning baynalmilallashuvi, jahon xo'jalik aloqalari yangi shakllarining paydo bo'lishi xalqaro kreditning turli shakllari rivojlanishiga ob'ktiv asos bo'lib xizmat qiladi.

Xalqaro xususiy kreditlar turli transmilliy korporatsiyalar, firmalar, banklar va vositachi brokerlik kompaniyalari tomonidan berilishi mumkin.

Ushbu kreditlar ichida yirik korxonalar va firmalar tomonidan beriladigan kreditlar salmog'i juda kattadir. Masalan, O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan juda ko'p qo'shma korxonalar xorijiy firmalar va korxonalar tomonidan berilgan kreditlar yordamida yaratilgan.

Xalqaro davlatlar krediti yoki hukumatlararo kreditlar u yoki bu mamlakat hukumati kredit muassasalari tomonidan boshqa mamlakatning u bu tarmoqlarini ustuvor rivojlantirish maqsadida beriladi. Hukumatlararo kreditlar xususiy kreditlarga nisbatan past foizlarda yoki imtiyozli ravishda yoki umuman foizsiz, ayrim hollarda beg'araz yordam sifatida ham berilishi mumkin.

Masalan, 2000 yilda Turkiyada ro'y bergan zilzila oqibatlarini tugatish va iqtisodiyot obektlarini tiklash maqsadida AQSH «Eksimbank»i 50 mlrd. AQSH dollari miqdorida imtiyozli kredit ajratdi.

O'zbekistonda kasb-hunar ta'limini rivojlantirish maqsadida Janubiy Koreya hukumati respublikamizga 37 mln. AQSH dollari miqdorida, Yaponiya hukumati tomonidan ham kreditlar berdi. Bunday kreditlar Yevropa mamlakatlari tomonidan ham berilmoqda.

Xalqaro va mintaqaviy valyuta-kredit tashkilotlari tomonidan beriladigan kreditlar odatda, rivojlanayotgan mamlakatlarga Uzoq muddatlarga, imtiyozli shartlarda, past foizlarda aniq maqsadlarni amalga oshirish uchun beriladi. Bunday maqsadlar qatoriga makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, milliy valyutani mustahkamlash, davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishni chuqurlashtirish, kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, raqobatchilik muhitini shakllantirish, kadrlar tayyorlash dasturlari kabilar kiradi.

Xalqaro va mintakaviy valyuta-kredit tashkilotlari qatoriga Xalqaro valyuta fondi (XVF), Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB yoki Jahon banki), Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK), Osiyo taraqqiyot banki (OTB), Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YETTB) va boshqalar kiradi.

O'zbekiston Respublikasining yuqoridagi xalqaro va mintaqaviy valyuta-kredit tashkilotlar bilan xalqaro kredit munosabatlari to'g'risida kelgusi bo'limda batafsil ma'lumot beriladi.

Hozirgi paytda rivojlanayotgan va muhtoj mamlakatlarga xalqaro kreditdan tashqari turli jamoat tashkilotlari va fondlar tomonidan beg'araz yordam ko'rsatilmoqda. Bunday yordam asosan sog'liqni saqlash va ta'lim tizimini rivojlantirish, ekologik muammolarni bartaraf etish va boshqa maqsadlarda berilmoqda. Bunday tashkilotlar sifatida Xalqaro «Ekosan» fondi, Xalqaro Qizil Hoch va Qizil Yarim Oy jamiyatlari, TAKIS dasturi, Germaniyaning K.Adenuer va A.Gumbolt, AQShning B.Franklin va G.Soros fondlari va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Xalqaro kreditning tamoyillari. Xalqaro kreditning takror ishlab chiqarish bilan aloqasi uning tamoyillarida aks etadi:

1) qaytarishlilik: agarda olingan mablag'lar qaytarilmayotgan bo'lsa, unda ushbu holat kapitalni qaytarmaslik sharti bilan berilishiga, ya'ni moliyalashtirishga aloqadordir;


2) muddatlilik: kredit kelishuvida belgilangan muddatlarda kredit qaytarilishini ta'minlaydi;

3) to'lovlilik: qiymat qonuni harakatini aks ettirgan holda kreditning har bir holatidagi alohida shartlarni amalga oshirish usulidir;

4) moddiy ta'minlanganligi: kredit so'ndirilishining kafolatida o'z aksini topadi;

5) maqsadli yo'nalishi: ssudaning aniq bir ob'ektlarini belgilanishi.

Xalqaro kreditning tamoyillari uning bozor iqtisodiy qonunlari bilan aloqalarini ifodalaydi va bozor sub'ektlari hamda davlatning joriy hamda strategik vazifalariga erishish maqsadida ishlatiladi.



3-rasm. Xalqaro kreditning tamoyillari⁹

Xalqaro kredit xalqaro iqtisodiy munosabatlar jarayonida valyuta va tovar resurslarini qaytarishlik, muddatlilik hamda foiz to'lash shartlari asosida taqdim etilishi bilan bog'liq ssuda kapitalining harakatidir. Kreditorlar va qarz oluvchilar sifatida xususiy korxonalar (bank, firma)lar, davlat tashkilotlari, hukumatlar, xalqaro hamda hududiy valyuta- kredit va moliyaviy tashkilotlar maydonga chiqadi. Xalqaro kredit kapitalistik ishlab chiqarish usulining dastlabki bosqichlarida vujudga kelgan va kapitalni dastlabki jamg'arishning richaglaridan biri edi. Ishlab chiqarishning milliy chegaralardan tashqariga chiqishi, xo'jalik aloqalari baynalmilallashuvining kuchayishi, kapitalning xalqaro jihatdan ijtimoiylashuvi, ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi va kooperatsiyalashuvi hamda ilmiy-texnik inqilob uning rivojlanishini ob'ktiv asosi bo'ldi.

Xalqaro lizing – bu ijara operatsiyalarining bir ko'rinishi bo'lib, bunda ijaraga beruvchining mulkka egalik huquqi saqlanib qoladi. Ijaraga oluvchi vaqti-vaqti bilan tovardan vaqtincha foydalanganligi uchun haq to'lab turadi. Eizing jihozlarni maxsus kredit muassasasining kompaniyasi tomonidan oldindan sotib olishni anglatadi. Asosan bunday operatsiyalarning ob'ekti sifatida turli xil jihozlar, transport vositalari, EHM va boshqalar hisoblanadi. Ijara kredit olishning o'ziga xos shakli bo'lib, eksportyor tovarining tashqi bozordagi harakatini yengillashtiradi. Oddiy tovar krediti bilan lizing ijara operatsiyalarini o'tkazish shartlarini bir-biriga

⁹ Tojiyev R.R. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari. Darslik. - T.: TDIU, 2009 y. 35 b.

yaqinlashtiradi. Ijaraga oluvchi o'z mablag'larini markazlashtirishdan xalos bo'ladi. Ijara to'lovlari bo'lak-bo'lak shaklida butun ijara davrida to'lab boriladi. Ammo lizingning maqsadida tovarga egalik huquqini olish emas, balki tovarning iste'mol xususiyatlaridan foydalanish huquqini olishdir. Xalqaro savdo ijara operatsiyalarining hajmining oshishi ko'plab moliya mablag'larini jalb etishni taqazo etadi. Shuning uchun ham ko'pchilik mamlakatlarning yirik tijorat banklari lizing kompaniyalarini moliyalashtirishda faol ishtirok etadilar. Keyinchalik lizing kompaniyalari banklar ixtiyoriga o'tadi. Xalqaro kreditning bahosi – bu bank bilan qarz oluvchi o'rtasidagi shartnoma asosida belgilanadi va bu kreditga oid foizlarni o'z ichiga oladi. Qisqacha qilib aytadigan bo'lsak, kreditning bahosi bu bank tomonidan belgilangan uning foiz stavkasi hisoblanadi.

Xalqaro kreditning bahosi ikkiga bo'linadi:

1. Kelishilgan kredit bahosi;
2. Kredit bahosining yashirin elementlari.

Xalqaro kreditning turli shakllarini kredit munosabatlarining ayrim tomonlarini harakterlovchi bir nechta muhim omillariga ko'ra umumiy asosda quyidagicha tasniflash mumkin:

- manbalarga ko'ra tashqi savdoni kreditlash hamda moliyalashtirishning ichki, xorijiy va aralash turlari farqlanadi. Ular o'zaro yaqindan bog'liqdir hamda eksportyordan importyorgacha bo'lgan tovar harakatining barcha bosqichlariga xizmat ko'rsatadi. Tovar sotuv jarayoniga qanchalik yaqin bo'lsa, odatda xalqaro kreditning shartlari qarz oluvchiga shunchalik yoqimli bo'ladi;

- belgilanishiga ko'ra tashqi iqtisodiy bitimning qaysi biri qarz mablag'lari hisobiga qoplanishiga bog'liq holda quyidagilar farqlanadi:

- 1) tashqi savdo va xizmatlar bilan bevosita bog'liq tijorat kreditlari;
- 2) har qanday boshqa maqsadlarga, shu jumladan to'g'ridan-to'g'ri amalga oshiriladigan kapital qo'yilmalarga, investitsion ob'ktlar qurilishiga, qimmatli qog'ozlar sotib olishga, tashqi qarzni so'ndirishga, valyuta intervensiyasiga ishlatiladigan moliyaviy kreditlar;

3) kapital, tovarlar va xizmatlarni chetga olib chiqilishining aralash shakllariga xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan "oraliq" kreditlar. Masalan, pudrat ishlari (injiniring)ni amalga oshirish shaklida.

- turlariga ko'ra kreditlar eksportyorlar tomonidan o'z sotib oluvchilariga tovar shaklida va banklar tomonidan pul shaklida taqdim etiladigan valyuta turlariga bo'linadi. Ayrim holatlarda valyuta krediti jihozlar yetkazib berish bo'yicha tijorat bitimi shartlaridan biri bo'lib hisoblanadi va import jihozlar zaminida ob'kt qurilishi yuzasidan mahalliy harajatlarni kreditlash uchun ishlatiladi;

- qarz valyutasiga ko'ra qarzdor mamlakat yoki kreditor-mamlakat valyutasida, uchinchi mamlakat valyutasida hamda SDR valyuta savatiga asoslangan xalqaro hisob valyutasida taqdim etiladigan xalqaro kreditlarga farqlanadi;

- muddatlariga ko'ra xalqaro kreditlar:

1. qisqa muddatli - 1 yilgacha, ayrim holatlarda 18 oygacha (o'ta qisqa muddatli - 3 oygacha, bir sutkalik va bir haftalik);

2. o'rta muddatli - 1 yildan 5 yilgacha;

3. uzoq muddatli - 5 yildan ziyod muddatlarga beriladigan kredit turlariga bo'linadi.

Ba'zi mamlakatlarda 7 yilgacha muddatga berilgan kreditlar o'rta muddatli, 7 yildan ortiq muddatga berilgan kreditlar esa uzoq muddatli bo'lib hisoblanadi. Uzoq muddatli xalqaro kredit odatda asosiy ishlab chiqarish vositalariga investitsiya qilish uchun mo'ljallangan bo'lib, mashinalar va butlovchi jihozlar eksportining 85 foizi hajmiga hamda tashqi iqtisodiy munosabatlarning yangi shakllari (yirik ko'lamdagi loyihalar, ilmiy tekshirish ishlari, yangi texnika joriy etilishi)ga xizmat ko'rsatadi.

- ta'minlanganlik tamoyiliga ko'ra ta'minlangan va blankali kreditlarga farqlanadi.

Kreditning ta'minoti bo'lib odatda tovarlar, tovarga egalik huquqini beruvchi va boshqa tijorat hujjatlari, qimmatli qog'ozlar, veksellar, ko'chmas mulk hamda qimmatliklar xizmat qiladi.

Kredit olish uchun tovar garovi 3 shaklda amalga oshiriladi:

- ✓ qat'iy garov (tovarlarning ma'lum bir massasi bank foydasiga garov qilinadi);
- ✓ muomaladagi tovar garovi (ma'lum bir summadagi, tegishli assortimentdagi tovarning qoldiqi hisobga olinadi);
- ✓ qayta ishlovdagi tovar garovi (mazkur mahsulotlarni bankka garovga bergan holda garovga olingan tovardan mahsulotlar ishlab chiqarish mumkin).

Xalqaro kreditning prinsiplari bozorning iqtisodiy qonunlari bilan uning iqtisodiy aloqasini aks ettiradi hamda bozor subyektlari va davlatning joriy va strategik maqsadlariga erishish uchun qo'llaniladi.

Xalqaro kredit ssuda kapitalini xalqaro iqtisodiy munosabatlar doirasida aylanish xususiyatini aks ettiruvchi quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1. Kengaygan ishlab chiqarish ehtiyojlarini qondirish maqsadida ssuda kapitalining mamlakatlar o'rtasida taqsimlanishi. Xalqaro kredit mexanizmi orqali ssuda kapitali foyda olishini ta'minlash maqsadida iqtisodiy agentlar ko'zlagan sohalarga yo'naltiriladi. Shu orqali kredit milliy foydani o'rtacha foydaga aylantirishga va uning massasini oshirishga yordam beradi.

2. Xalqaro hisob-kitoblarda asl pullarni (oltin, kumush) kredit pullar bilan almashishi, shuningdek, naqdsiz to'lovlarning tezlashishi va rivojlanishi, naqd valuta aylanmasini xalqaro kredit operatsiyalari bilan almashishi muomala xarajatlarini iqtisod qiladi. Xalqaro kreditlar asosida xalqaro hisob-kitoblarning kredit vositalari bo'lgan – veksel, chek, shuningdek, bank o'tkazmalari, depozit sertifikatlari va boshqalar vujudga keldi. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarda ssuda kapitalining muomala vaqti tejalishi hisobiga kapitalning ishlab chiqarish funksiyasi yordamida ishlab chiqarishni kengaytirishga va foydani ko'paytirishga erishish mumkin.

3. Kapitalning to'planishi va markazlashuvining tezlashishi. Chet el kreditlarini jalb qilish hisobiga qo'shimcha qiymatni kapitallashtirish tezlashadi, individual jamg'arish chegaralari kengayadi, bir mamlakat tadbirkorlarining kapitali boshqa mamlakat mablag'lari hisobiga ko'payadi. Kredit ma'lum chegaralarda boshqa mamlakatlarning kapitali, mehnati va mulkiga egalik qilish imkoniyatini beradi.

Imtiyozli xalqaro kreditlarning yirik kompaniyalarga berilishi hamda mayda va o'rta firmalarning jahon ssuda kapitallari bozoriga kirish imkoniyatini qisqarishi kapitalning to'planishiga va markazlashuviga sabab bo'lmoqda.

Xalqaro kredit funksiyalarining mohiyati milliy va jahon xo'jaligining rivojlanishiga qarab o'zgarib boradi. Zamonaviy sharoitlarda xalqaro kredit iqtisodiyotni tartibga solish funksiyasini bajaradi hamda o'zi ham tartibga solish obyekti hisoblanadi.

Xalqaro kreditning turli shakllarini umumiy ko'rinishda, kredit munosabatlarini tavsiflovchi alohida jihatlari bo'yicha tasniflash mumkin.

Xalqaro kreditni manbalari bo'yicha ichki, tashqi va aralash kreditlashga hamda tashqi savdoni moliyalashtirishga ajratish mumkin. Ular bir-biri bilan uzviy bog'langan va tovarning eksportyordan importyorga tomon harakatining barcha bosqichlariga – eksport tovarini ishlab chiqarish, uning yo'ldagi va omborga tushish jarayonlariga (shuningdek, chegaradan tashqarida ham), tovarning ishlab chiqarish jarayonida importyor tomonidan ishlatilishi va iste'mol qilinishiga xizmat qiladi. Tovar sotish jarayoniga qanchalik yaqin bo'lsa, qarzdorga uning shartlari shunchalik darajada ma'qul keladi.

Qarz mablag'lari qanday tashqi iqtisodiy bitimda belgilanishiga qarab quyidagilarga bo'linadi:

- tijorat kreditlari – tashqi savdo va xizmatlar bilan bevosita bog'langan;
- moliyaviy kreditlar – har qanday maqsadlarga ishlatiladigan, shu jumladan to'g'ri kapital qo'yilmalar, investitsion obyektlarni qurish, qimmatli qog'ozlarni sotib olish, tashqi qarzni to'lash, valuta intervensiyasini o'tkazishlar;
- oraliq kreditlar – kapital, tovar va xizmatlarni olib chiqarishning aralash shakllariga xizmat qilish uchun tayinlangan, masalan, pudrat ishlarini bajarish shaklida bo'lishi mumkin.

Ko'rinishi bo'yicha kreditlar: tovar shaklida – asosan eksportyorlar tomonidan xaridorlarga beriladigan va valuta shaklida – banklar tomonidan pul shaklida beriladigan kreditlarga bo'linadi.

Valutasi bo'yicha xalqaro kredit qarzdor mamlakatning valutasida yoki kreditor mamlakatning valutasida, shuningdek, valuta savatida hisoblanadigan xalqaro valuta birligida (SDR, yevro va b.) berilishi mumkin.

Xalqaro kredit manbalariga ko'ra tashqi savdoni ichki, tashqi (chet) va aralash kreditlash hamda moliyalashtirish bo'yicha farqlanadi.

Xalqaro kreditni ko'rinishi bo'yicha 2 ta asosiy shaklga bo'lib ko'rsatish mumkin:

1. Xalqaro bank krediti.

2. Xalqaro tijorat krediti.

Xalqaro bank krediti asosan valuta (pul) ko'rinishida bo'ladi.

Xalqaro tijorat krediti esa, odatda, tovar ko'rinishiga ega.

Ana shu 2 ta asosiy kredit shaklidan kelib chiqadigan bir qancha kreditlar mavjud:

1. Firma (tijorat) krediti – odatda, eksportyor mamlakatning bir firmasi boshqa mamlakatning importyoriga to'lovni kechiktirish shaklidagi ssuda berishi tushuniladi. Tashqi savdoda tijorat krediti tovarli operatsiyalarga bog'liq hisob-kitoblarda keng qo'llaniladi. Tijorat kreditining muddati (odatda, 2-7 yil) turlicha bo'ladi.

2. Vekselli kreditda eksportyor tovarni sotish haqida bitim tuzib, o'tkazma veksel (tratta)ni importyorga jo'natadi, importyor tijorat hujjatlarini olib akseptlaydi, ya'ni unda ko'rsatilgan muddatda to'lovni amalga oshirishga rozilik beradi.

3. Ochiq hisobvaraqlar bo'yicha beriladigan kredit. Bu kredit eksportyor va importyor o'rtasidagi kelishuvga asoslanadi. Eksportyor jo'natilgan har bir tovarlar qiymatini importyorning hisobiga qarz sifatida qayd qilib boradi. Importyor shartnomada ko'rsatilgan vaqtda kredit summasini to'lab boradi. Ochiq hisobvaraqlar bo'yicha beriladigan kreditlar faqatgina doimiy aloqada bo'lgan firmalar o'rtasidagina amalga oshirilishi mumkin.

Tijorat kreditining yana bir turiga importyorning avans to'lovi (sotib oluvchining avansi) ni kiritish mumkin. Bunda shartnoma tuzilayotgan paytda mol

sotib oluvchi, ya'ni importyor tomonidan chet ellik mol yetkazib beruvchiga, odatda, mashina, asbob-uskunalar (texnologiya) ning qiymatidan 10-15 foizi oldindan to'lab beriladi.

Xaridor avansi eksportni kreditlashning bir shakli hisoblanadi va shu vaqtning o'zida importyorning majburiyatini ta'minlovchi vositadir. Chunki importyor o'zi buyurtma bergan tovarni sotib olishga majbur bo'ladi. Rivojlangan mamlakatlarning import bilan shug'ullanuvchi firmalari rivojlanayotgan mamlakatlardan farqli ravishda, xaridor avansidan shu davlatlarning qishloq xo'jalik mahsulotlarini olib chiqib ketishda foydalanmoqdalar.

4. O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda xalqaro valyuta-kredit munosabatlarining o'rni

Bugun O'zbekistondagi ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida o'tkazilayotgan tub o'zgarishlar o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga ko'tariladi. O'zbekiston iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlarini jahon andozalari darajasidagi yangi texnika bilan ta'minlash uchun investitsiya mablag'lari ajratayotgan moliya institutlari oldiga katta vazifalar qo'yilmoqda. Bu vazifani moliyalashning nafaqat an'anaiviy usuli bank krediti va boshqa kreditlarga, balkim xorijiy valyuta-kredit munosabatlariga tayangan holda amalga oshirilib kelinmoqda.


O'zbekistonda olib borilayotgan har tomonlama asoslangan xalqaro valyuta-kredit munosabatlari mamlakatdagi iqtisodiy, ijtimoiy va investsiya muhitiga ijobiy ta'sir etishi bilan birga investitsiyalar kiritish ob'ektlarini jozibadorligini ham oshirmoqda. Bular, o'z navbatida, ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilishga barcha moliyalashtirish manbalaridan keladigan investitsiyalar hajmini o'sib borishini ta'minlamoqda.

Xususan, 2019 yilda amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar natijasida asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi keskin oshib, 2018 yilga nisbatan 133,9 % ni tashkil etdi.

2019 yil yanvar-dekabr oylarida 189,9 trln. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilib, ularning 70,7 % yoki 134,3 trln. so'm jalb etilgan

mablag'lar hisobidan moliyalashtirilgan bo'lsa, korxonalar, tashkilotlar va aholining o'z mablag'lari hisobidan 29,3 % yoki 55,6 trln. so'm moliyalashtirildi (3-rasm).

Investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari bo'yicha, 2019 yilning yanvar-dekabr oylarida markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi o'tgan yilning mos davridagi ulushiga nisbatan 3,1 % punktga kamayib, 26,6 % ni yoki 50686,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.



3-rasm. 2019 yilda O'zbekistonda Respublikasida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi¹⁰


Mos ravishda markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi 3,1 % punktga ko'payib, 73,4 % ni yoki 139237,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Korxonalar va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar ulushi salmoqli bo'ldi – 39292,3 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 20,7 %. Aholi mablag'lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 8,6 % yoki 16302,5 mlrd. so'm o'zlashtirildi.

2019-yil yanvar-dekabr oylarida o'zlashtirilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi jadal o'sib, 37171,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2018- yilning

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi Press-relizlari, Toshkent, 2019 yil, 1 bet

mos davridagi jami asosiy kapitaldagi ulushiga nisbatan 12,2 % punktiga ko'payib, 19,6 % ni tashkil etdi (4-rasm).



4-rasm. Asosiy kapitalga investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari bo'yicha tarkibi, mlrd. so'm¹¹

Shuningdek, tijorat banklar kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hisobidan 24856,0 mlrd. so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 13,1 % ini tashkil etib, 2018 yilga nisbatan 4,7 % punktga kamaydi), O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar 27866,4 mlrd. so'm (14,7 % va 0,9 % punktiga ko'paydi), kafolatlanmagan va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar 21615,4 mlrd. so'm (11,4 % va 8,3 % punktga ko'paydi), Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi 6511,9 (3,4 % va 3,0 % punktga kamaydi), Respublika byudjeti 14518,0 mlrd. so'm (7,6 % va 1,1 % punktiga kamaydi), Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi 1759,2 mlrd. so'm (0,9 % va 0,3 % punktga ko'paydi) va Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish jamg'armasi hisobidan esa 31,3 mlrd. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi.

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi Press-relizlari, Toshkent, 2019 yil, 4 bet.

Asosiy kapitalga investitsiyalar o'sish sur'atlarini moliyalastirish manbalari bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich kafolatlanmagan hamda boshqa xorijiy investitsiya va kreditlarda kuzatilib, 2018 yilga nisbatan 4,1 marta o'sdi. Shuningdek, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan moliyalashtirilgan investitsiyalarda ham yuqori o'sish sur'atlari – 3,6 martaga o'sish kuzatilib, bu mahsulot taqsimoti kelishuvi shartlari asosida gaz-kimyoy majmuasi qurilishi bilan “Mustaqillikning 25 yilligi” konlarida qidiruv ishlarini yakunlash va ishlar olib borish, O'zbekiston Respublikasi investitsiya bloklarida (Kultak-Qamashi, Muborak, Surxon, Ashibuloq va Koskud, g'arbiy Farg'ona investitsiya bloklari) neft-gaz konlariga ishlov berish va geologik qidiruv ishlarini amalga oshirish, hududlarda sement ishlab chiqarishini tashkil etish, to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni tashkil etish kabi yirik investitsiya loyihalarining jadal o'zlashtirilgani bilan bog'liq.

Kafolatlanmagan xorijiy kreditlar hisobidan 2017-2021 yillarda uglevodorodlarni qazib chiqarishni ko'paytirish bo'yicha Dastur doirasidagi investitsiya loyihalar, basalt toshidan mineral plitalar ishlab chiqarish majmuasini tashkil etish kabi yirik loyihalar amalga oshirilmoqda.

Hududlar kesimida moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar Toshkent shahriga yo'naltirilgan (o'sish sur'ati 142,5%). Shuningdek investitsiyalarning asosiy hajmi Qashqadaryo va Navoiy viloyatlariga yo'nlatirilgan (2-jadval).

Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilishi bo'yicha 2018 yilga nisbatan eng yuqori o'sish sur'ati 95,2 % ga o'sib Jizzax viloyatida kuzatildi. Bu asosan sement zavodi qurilishi bilan bog'liq.

Shuningdek, Sirdaryo viloyatida ham yuqori o'sish surati kuzatilib, 2018 yilga nisbatan 194,3 % ni tashkil qildi. Bunday natijani Sirdaryo issiqlik elektr stansiyasida bosqichma-bosqich energobloklarni modernizatsiya qilish bilan izohlash mumkin.

Xorazm viloyatida asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining 2018 yildagi hajmiga nisbatan 167,1 % ni tashkil etishi Toshokin tizimidagi sug'orish magistral kanallarini qayta tiklash loyihasi bo'yicha amalga oshirilgan ishlar bilan bog'liq.

Hududlar kesimida moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar¹²

	Jami asosiy kapitalga investitsiyalar, mlrd. so'm	shu jumladan, moliyalashtirish manbalari bo'yicha (jamiga nisbatan % da):							
		Respublika byudjeti	Korxonalar va tashkilotlarning o'z mablag'lari	Aholining o'z mablag'lari	Xorijiy investitsiya va kreditlar	Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish jamg'armasi	Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	Bank kreditlari va boshqa tashkilotlarning qarzi mablag'lari
O'zbekiston Respublikasi	189924,3	7,6	20,7	8,6	45,7	0,9	0,02	3,4	13,1
Qoraqalpog'iston Respublikasi	8434,6	13,9	28,0	10,0	38,1	0,7		3,6	5,7
viloyatlar:									
Andijon	8183,7	8,4	22,2	16,9	35,2	1,1		0,1	16,1
Buxoro	9867,0	7,6	12,5	12,9	52,9	1,0	-	0,4	12,7
Jizzax	7919,3	11,0	17,9	6,6	47,0	1,5	-	0,8	15,2
Qashqadaryo	23525,3	3,5	15,8	5,7	71,0	0,7	-	0,0	3,3
Navoiy	17775,3	2,4	9,0	6,4	38,9	0,4	0,03	17,1	25,8
Namangan	12187,0	4,7	24,8	11,2	43,6	0,7	-	3,3	11,7
Samarqand	9798,6	12,0	19,5	15,8	28,6	1,6	-	0,2	22,3
Surxondaryo	12232,4	5,4	10,9	8,2	61,8	1,1	-	-	12,6
Sirdaryo	6129,2	9,8	18,2	3,7	46,5	1,4	-	0,4	20,0
Toshkent	16935,1	13,3	24,5	9,5	33,0	2,7	-	6,5	10,5
Farg'ona	9164,2	7,2	22,4	14,1	38,6	0,8	-	0,3	16,6
Xorazm	5566,8	8,7	13,4	18,2	42,2	1,4	0,5	3,6	12,0
Toshkent sh.	41497,9	6,7	30,6	4,2	43,3	0,2		3,2	11,8

¹² O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi Press-revizlari, Toshkent, 2019 yil, 6 bet.

Jami asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning hajmidagi ulushi bo'yicha hududlar kesimida Toshkent shahri hamon yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 21,8 % o'zlashtirildi. Mos ravishda Qashqadaryo va Navoiy viloyatlarida ushbu ko'rsatkich 12,4 va 9,4 % ni tashkil etdi.

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning yuqori o'sish sur'atlariga qaramay Sirdaryo hamda Xorazm viloyatlarida o'zlashtirilgan investitsiyalarning jami Respublikada o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmidagi eng kam ulushlar qayd etildi – 3,2 va 2,9 %.


O'zbekiston Respublikasi bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida mashina, uskuna va inventarlarga investitsiyalar 93367,7 mlrd. so'm o'zlashtirilgan bo'lib, jami investitsiyalarning 49,2 % ni tashkil etdi, qurilish montaj ishlari bo'yicha 82339,0 mlrd. so'm (jami investitsiyalardagi ulushi 43,3 %) va boshqa xarajatlarga 14217,6 mlrd. so'm (7,5 %) o'zlashtirildi.

Hududlar kesimida jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmida qurilish-montaj ishlarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Surxondaryo viloyatida kuzatildi – 61,8 % yoki 7562,7 mlrd. so'm.

Qurilish-montaj ishlarining ulushi bo'yicha eng quyi daraja Jizzax viloyatida kuzatilib, 32,2 % ni yoki 2546,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va mos ravishda, ushbu hududda mashina, uskunalar va inventarlarga xarajatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich – 65,5 % yoki 5189,6 mlrd. so'm kuzatildi.

2019 yilda ham asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning katta qismi yangi qurilishga yo'naltirildi. Yangi qurilishga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 101800,2 mlrd. so'mni tashkil etib, jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 53,6 % ini tashkil etdi. Iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar 54531,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va respublikada jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 28,7 % ini tashkil etdi. Qolgan 17,7 %, ya'ni 33592,4 mlrd. so'm boshqa xarajatlarga yo'naltirildi. Yangi qurilishga yo'naltirilgan investitsiyalarning jami investitsiyalardagi ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich mahsulot taqsimoti

kelishuvi shartlari asosida gaz-kimyoy majmuasi qurilishi bilan “Mustaqillikning 25 yilligi” konlarida qidiruv ishlarini yakunlash va ishlar olib borish loyihasi natijasida Surxondaryo viloyatida kuzatilib, u 68,9 % ni tashkil etdi. Bu ko’rsatkichning eng past darajasi Jizzax viloyatida kuzatildi va u 26,4 % ni tashkil etdi.



5-rasm. Xorijiy investitsiya va kreditlar o'zlashtirilishi (mlrd. AQSh doll)¹³

Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida qayta ishlash sanoati yetakchilik qilmoqda. Ushbu tarmoqda jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 51433,3 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 27,1 % o'zlashtirilgan. Uning tarkibida eng ko'p investitsiyalar o'zlashtirilgan 3 ta faoliyat turlari quyidagilar:

- to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish 10719,0 mlrd. so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi 5,6 %);
- boshqa nometal mineral mahsulotlari ishlab chiqarish 8991,7 mlrd. so'm (4,7 %);
- metallurgiya sanoati 8956,9 mlrd. so'm (4,7 %).

¹³ O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi Press-relizlari, Toshkent, 2019 yil, 16 bet.

2019 yil yanvar-dekabrda jami 12,1 mlrd. AQSh doll. xorijiy investitsiya va kreditlar o'zlashtirilgan bo'lib, ulardan 81,0 %i yoki 9,8 mlrd. AQSh doll asosiy kapitalga o'zlashtirildi (5-rasm).

3-jadval

Hududlar kesimida moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar (mlrd. so'm)¹⁴

Hududlar	Jami	Shu jumladan:		
		To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar	O'z.R. kafolati ostida xorijiy kreditlar	Boshqalar
O'zbekiston Respublikasi	86653,1	37171,3	27866,4	21615,4
Qoraqalpog'iston Respublikasi	3212,3	829,5	1254,6	1128,2
viloyatlar:				
Andijon	2881,4	1441,7	276,1	1163,6
Buxoro	5226,1	2331,6	841,3	2053,2
Jizzax	3716,3	1383,4	369,2	1963,7
Qashqadaryo	16711,5	5653,4	9603,1	1455,0
Navoiy	6902,3	615,0	5877,5	409,8
Namangan	5313,6	981,0	2785,0	1547,6
Samarqand	2799,8	1215,8	691,6	892,4
Surxondaryo	7557,6	6165,4	601,1	791,1
Sirdaryo	2853,0	2117,0	641,8	94,2
Toshkent	5595,2	4147,4	412,7	1035,1
Farg'ona	3538,2	2415,9	141,2	981,1
Xorazm	2350,1	1142,8	468,1	739,2
Toshkent sh.	17995,7	6731,4	3903,1	7361,2

Jami o'zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlarning 42,4 % yoki 5,1 mlrd. AQSh dollarini to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar tashkil qildi, shu jumladan, 4,2 mlrd. AQSh dollari asosiy kapitalga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni tashkil etdi.

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi Press-relizlari, Toshkent, 2019 yil, 17 bet.

2019 yil yanvar-dekabrda 86653,1 mlrd. so'm yoki asosiy kapitalga investitsiyalarning 45,7 %i xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan o'zlashtirildi.

Jami xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibida xorijiy investitsiyalar 42799,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va qolgan 43854,0 mlrd. so'm xorijiy kreditlar hisobiga to'g'ri keldi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan joriy davrda 37171,3 mlrd. so'm o'zlashtirilgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar 27866,4 mlrd. so'm, 21615,4 mlrd. so'm boshqa xorijiy investitsiya va kafolatlanmagan xorijiy kreditlar hisobidan o'zlashtirildi (3-jadval).

4-jadval

2017-2019-yillarda YaIMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan % da)¹⁵

	2017-yil	2018-yil	2019-yil
1. YalM, jami	104,5	105,4	105,6
shu jumladan			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	104,3	105,4	105,6
Mahsulotlarga sof soliqlar	105,7	105,9	105,6
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	104,3	105,4	105,6
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	101,2	100,3	102,5
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	105,4	111,5	108,9
sanoat	105,2	110,8	106,6
qurilish	106,0	114,3	119,0
Xizmatlar	106,4	105,5	105,1
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	102,1	105,4	105,0
tashish va saqlash, axborot va aloqa	111,3	106,9	105,6
boshqa xizmat tarmoqlari	105,9	104,8	105,0

Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlarning o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 2,5 martani tashkil etdi.

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi Press-relizlari, Toshkent, 2019 yil, 5 bet

Qayta ishlash sanoati bo'yicha jami xorijiy investitsiya va kreditlarning 33,3 % yoki 28854,4 mlrd. so'm xorijiy investitsiya va kreditlar o'zlashtirilgan bo'lib, uning tarkibida yuqori ko'rsatkichlarni to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – 9,0 % yoki 7796,3 mlrd. so'm, boshqa nometal mineral mahsulotlari ishlab chiqarish – 7,6 % yoki 6617,6 mlrd. so'm, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish – 5,3 % yoki 4591,7 mlrd. so'm o'zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar tashkil qildi.

Elektr, gaz bilan ta'minlash faoliyat turida ham katta hajmda xorijiy investitsiya va kreditlar o'zlashtirilib, jami 16734,1 mlrd. so'm yoki jami xorijiy investitsiya va kreditlarning 19,3 %i o'zlashtirildi.

Tog'-kon sanoatida esa 15124,8 mlrd. so'mni yoki jami xorijiy investitsiya va kreditlar hajmida 17,5 % ni tashkil etdi.


Amalga oshirilgan ishlar asosida o'tkazilayotgan islohotlar o'z natijasini bermoqda. Xususan, 2019-yilda yalpi ichki mahsulot 5,6 foizga, sanoat ishlab chiqarish hajmi 6,6 foizga, qurilish-pudrat ishlari 19,0 foizga, chakana savdo aylanmasi 5,0 foizga, xizmatlar 5,1 foizga, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish 2,5 foizga, boshqa xizmatlar 5,0 foizga oshdi (4-jadval).

Umumiy tashqi qarz rezidentlarning norezidentlar oldidagi asosiy qarz va foizlarni to'lash talab qilinadigan majburiyatlarini aks ettiradi. Umumiy tashqi qarz davlat va xususiy sektor qarzlaridan iborat. Umumiy tashqi qarzdagi o'zgarishlar tahlili shuni ko'rsatdiki, 2013-2017 yillar davomida har ikkala sektorda ham qarzdorlikning o'sishi kuzatilgan.

Biroq, 2018 yilda xususiy sektor tashqi qarzi kamayishi kuzatildi, bu esa o'z navbatida neft-gaz va energetika sektori korxonalarini tomonidan jalb qilingan qarzdorlik muddatining tugashi bilan izohlanadi. 2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida xususiy sektor tashqi qarzi asosan tijorat banklari tomonidan qarz olishning ko'payishi hisobiga yana o'sishni boshladi.

2019 yilning 9 oyi davomida davlat tashqi qarzi sezilarli darajada oshdi va o'sish tendensiyasi 2019 yil oxirigacha saqlanib qolishi kutilyapti. Ushbu jarayon hududlar va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlarini

moliyalashtirish uchun yangi qarzidorliklarni jalb qilinishi bilan izohlanishi mumkin (6-rasm).



6-rasm. O'zbekiston Respublikasi umumiy tashqi qarzining dinamik qatorlari¹⁶

O'zbekiston Respublikasi tashqi qarzining umumiy hajmi 2019 yil boshidan 4,2 mlrd. dollarga yoki 24%ga oshgan holda, 2019 yil 1 oktyabr holatiga 21,5 mlrd. dollarni tashkil qildi (5-jadval).

2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida qarzidorlikning o'sishi asosan davlat sektoriga to'g'ri keldi (3,7 mlrd. dollar), shundan 1 mlrd. dollari xalqaro obligatsiyalar hisobiga shakllangan.

Banklar va iqtisodiyotning boshqa sektor korxonalarini tomonidan qarz olish hajmining oshishi natijasida xususiy sektor qarzidorligi 494,4 mln. dollarga oshdi.

Qayd etish lozimki, 2019 yilning 9 oyi davomida xususiy sektor tomonidan umumiy miqdorda 1,6 mlrd. dollar qarzidorlik jalb qilindi. Qarzlarni jalb qilish asosan banklar – 1,0 mlrd. dollar, neft-gaz va energetika tashkilotlari – 207,4 mln. dollar, to'qimachilik sektori korxonalarini – 81,6 mln. dollar va iqtisodiyotning boshqa sektorlari – 291,8 mln. dollar tomonidan amalga oshirildi.

¹⁶ Markaziy bankning 2019 yilning III choraklik uchun to'lov balansi va xalqaro investitsion pozitsiyasi, shuningdek, tashqi qarz bo'yicha ma'lumotlari, Toshkent, 2019 yil, 33 bet.

Umumiy tashqi qarz tarkibi va undagi o'zgarishlar (mln. dollar)¹⁷

Iqtisodiyot sektori	Quyidagi sanalar holatiga ko'ra qarzdorlik			Salmog'i	2019 yil 9 oyi davomidagi o'zgarish
	01.01.2018 y.	01.01.2019 y.	01.10.2019 y.		
Jami	15 785,9	17 295,0	21 457,5	100%	4 162,5
Davlat tashqi qarzi	7 600,0	10 086,4	13 754,6	64%	3 668,1
<i>shundan: O'zbekiston Respublikasi xalqaro obligatsiyalari</i>	-	-	1 078,8	5%	1 078,8
Xususiy tashqi qarz	8 185,9	7 208,6	7 702,9	36%	494,4
<i>shundan: bosh kompaniyalaridan</i>	1 304,9	687,8	763,4	4%	75,7
Sektorlarning xususiy tashqi qarzdagi ulushlari					
Neft-gaz va energetika sektori	6 149,7	5 386,5	4 942,8	64%	-443,7
Bank sektori	584,0	978,2	1 790,0	23%	811,7
Telekommunikatsiya sektori	965,6	248,2	237,4	3%	-10,9
To'qimachilik sektori	126,0	132,2	151,6	2%	19,4
Boshqa sektorlar	360,6	463,4	581,2	8%	117,8

Qayd qilish kerakki, davlat tashqi qarzining manbalari diversifikatsiyasi ta'minlangan bo'lib, xorijiy hukumat moliya tashkilotlari hissasiga davlat tashqi qarzining 45,7 foizi to'g'ri keladi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining asosiy kreditor mamlakatlari Xitoy Xalq Respublikasi, Yaponiya, Janubiy Koreya, Rossiya, AQSh, Fransiya, Germaniya, Ispaniya, Polsha, Saudiya Arabistoni, va boshqa mamlakatlarning xorijiy hukumat moliya tashkilotlari hissasiga to'g'ri kelib, asosan turli investitsion dasturlarni Hukumat kafolatlari ostida moliyalashtirilishi uchun qarz mablag'lari jalb etilgan (6-jadval).

Xususan, O'zbekiston Respublikasining Xitoy Xalq Respublikasi oldidagi qarz majburiyatlari davlat tashqi qarzining 20,6 foizini tashkil etadi. Mazkur qarz mablag'lari mamlakatimizdagi davlat korxonalarini tomonidan yuqori rentabelli va eksportga yo'naltirilgan investitsion loyihalarni moliyalashtirish uchun O'zbekiston

¹⁷ Markaziy bankning 2019 yilning III choraklik uchun to'lov balansi va xalqaro investitsion pozitsiyasi, shuningdek, tashqi qarz bo'yicha ma'lumotlari, Toshkent, 2019 yil, 34 bet.

Respublikasi Hukumati kafolati ostida Xitoy Davlat Taraqqiyot Banki va Xitoy Eksport- Import Bankidan jalb etilgan bo'lib, Hukumatning to'g'ridan-to'g'ri majburiyati hisoblanmaydi.

Xitoy Xalq Respublikasi oldidagi qarzdorlik bo'yicha xarajatlar davlat korxonalarini tomonidan investitsion loyihalarni moliyalashtirish natijasida tushgan mablag'lar hisobidan so'ndiriladi.

6-jadval

Xorijiy hukumat moliya tashkilotlaridan jalb qilingan davlat tashqi qarzi qoldig'i (01.10.2019 yil holatiga)¹⁸


Kreditor mamlakatlar	mln. dollar.	Davlat tashqi qarzidagi ulushi
Jami	6 218,9	45,7%
Xitoy Xalq Respublikasi	2 803,7	20,6%
Yaponiya	1 838,0	13,6%
Janubiy Koreya	560,4	4,1%
Fransiya	345,8	2,5%
Germaniya	286,5	2,1%
Rossiya	150,6	1,1%
Saudiya Arabistoni	122,1	0,9%
Boshqalar	111,8	0,8%

Shuni ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Hukumati xalqaro moliya tashkilotlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlaridan qarz mablag'larini jalb qilishda konservativ yondashuvga va xatarlarni boshqarish tamoyillariga amal qiladi.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro moliyaviy institutlaridan jalb qilgan tashqi qarz portfeli hajmi 6,4 mlrd. AQSh dollarini tashkil etib, mazkur kreditlar uzoq muddat (30 yilgacha) hamda imtiyozli foiz stavkalarida taqdim etilgan.

Xususan, davlat tashqi qarzining asosiy qismi Osiyo taraqqiyot banki (3,5 mlrd. dollar), Jahon banki (2,1 mlrd. dollar) va Islom taraqqiyot banki (0,7 mlrd. dollar) hissasiga to'g'ri keladi (7-rasm).

¹⁸ Moliya vazirligining 2019 yilning III choraklik uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat qarzi holati va dinamikasi sharhi, Toshkent, 2019 yil, 24 bet.



7-rasm. Davlat tashqi qarzining xalqaro moliya institutlar kesimida taqsimlanishi (01.10.2019 yil holatiga, mln. AQSh dollarida)¹⁹

Shunday qilib, milliy iqtisodiyotga kiritilayotgan ichki va tashqi investitsiyalar, makroiqtisodiy o'sish, aholi bandligi va ular daromadlarini oshirishga, yangi ish o'rinlarini yaratishga, ishlab chiqarish hajmini ko'paytirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan bir vaqtda mamlakatimizda yaratilgan qulay investitsion muhit, investitsiyalar oqimi barqarorligini ta'minlamoqda. Shularni inobatga olganda, iqtisodiyotni modernizatsiyalash va uni raqobatbardoshligini oshirishga investitsiyalar, shu jumladan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar jalb etishni kengaytirish uchun investitsiya siyosatining uzviy qismi sifatida yanada jozibador investitsiya muhitini yaratish lozim. Ushbu masalalar dissertatsiyaning keyingi bobida ko'rib chiqilgan.

5. O'zbekistonning xalqaro valyuta kredit mulosabatlarida rolini oshirish yo'nalishlari

Ma'lumki, mamlakatimiz iqtisodiyotida tarkibiy o'zgartirishlarni amalga oshirish va uning uchun investitsiyalar jalb etish, shu jumladan, xorijiy

¹⁹ Moliya vazirligining 2019 yilning III choraklik uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat qarzi holati va dinamikasi sharhi, Toshkent, 2019 yil, 25 bet.

investitsiyalarni, ayniqsa, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etishga hamda valqaro valyuta-kredit munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan islohotlarning dastlabki bosqichlaridan boshlab katta e'tibor qaratib kelinmoqda va buning uchun islohotlarning strategik maqsad va vazifalaridan kelib chiqib hamda O'zbekiston iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib yuqorida tavsiflangan davlat siyosati asoslangan.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini tarkibiy o'zgartirishdagi davlat siyosati – respublikamizning iqtisodiy va siyosiy mustaqilligini ta'minlay oladigan va xalqimizni farovon yashashi uchun munosib shart-sharoitlar yaratib berishga qodir bo'lgan batamom yangi xo'jalik majmuasini yaratishga qaratilgan. Ana shu siyosatni amalga oshirish uchun iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirishlarning asosiy yo'nalishlari ishlab chiqilgan²⁰.

O'zbekistonning jahon iqtisodiyotiga qo'shilishining shart-sharoitlari va tashqi iqtisodiy faoliyatini amalga oshirish imkoniyatlari Respublika davlat mustaqilligini qo'lga kiritishi bilan vujudga kela boshladi. Bunday vaziyatda tashqi iqtisodiy majmuani boshqarishning o'ziga xos tizimini shakllantirish, tashqi aloqalarni yo'lga qo'yish borasida qoida va tamoyillarni ishlab chiqish, respublikaning jahon iqtisodiy tizimiga qo'shilish yo'llarini belgilash taqozo etiladi.

Respublika tashqi siyosatini amalga oshirishning asosiy tamoyillari teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik negizida qurilsa, uning qoidalari ikki tomonlama va ko'p tomonlama shartnoma munosabatlarida o'zaro manfaatli aloqalar o'rnatish, xalqaro iqtisodiy ittifoqlar doirasidagi hamkorlikni chuqurlashtirishga asoslanadi.

O'zbekistonning xalqaro mehnat taqsimoti va jahon xo'jalik aloqalarida ishtirok etishning asosi ochiq turdagi iqtisodiyotni vujudga keltirishdir. Shu sababli respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyin qisqa davr ichida 80 dan ortiq davlat bilan diplomatiya munosabatlarini o'rnatdi, dunyoning 20 dan ortiq davlatida diplomatiya elchixonalarini ochdi, ko'pgina xalqaro tashkilotlar – BMT iqtisodiy muassasalari, Jahon banki, Xalqaro bank, Xalqaro valyuta fondi, Xalqaro moliya

²⁰ Гольшев В.А., Закирова С.А. Национальная экономика Республики Узбекистан в переходный период: Учебное пособие. – Т.: УМЭД, 2007. - 142 с.

korporatsiyasi, Iqtisodiy taraqqiyotga ko'maklashuvchi tashkilot kabi boshqa xalqaro moliyaviy-iqtisodiy tashkilotlarga a'zo bo'lib kirdi.

O'zbekistonning jahon xo'jaligiga integratsiyalashuvi jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida to'xtalib, birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov shunday degan edi: "Integratsiya haqida gapirar ekanmiz, manfaatlar birikuvining xilma-xil mexanizmlari va shakllari hamda integratsiya turlari mavjudligiga asoslanamiz. Bunga sherikchilik va hamkorlik qilishga intilayotgan mamlakatlarning boshlang'ich shart-sharoitlari turlichaligi sababdir. O'zbekiston bir vaqtning o'zida turli darajalarda – dunyo miqyosida va mintaqa ko'lamida – integratsiya jarayonlarida qatnashsa-da, ammo bir muhim qoidaga: bir davlat bilan yaqinlashish hisobiga boshqasidan uzoqlashmaslikka amal qiladi. Shu sababli O'zbekistonning jahon hamjamiyatidagi integratsiyalashuvi serqirra jarayondir"²¹.

Bugungi kunda O'zbekistonning jahon xo'jaligiga integratsiyalashuvi ko'p darajali tizim sifatida amal qilib, uni quyidagi beshta darajaga ajratish mumkin:

- ✓ global;
- ✓ transkontinental;
- ✓ mintaqalararo;
- ✓ mintaqaviy;
- ✓ mahalliy.

O'zbekistonning global darajada amalga oshiriluvchi strategik integratsion vazifasi – bu mamlakatdagi barcha xo'jalik sub'ektlarining tashqi bozor bilan o'zaro aloqasini ta'minlash uchun teng huquqli va milliy manfaatlariga mos keluvchi shart-sharoitlarni yaratish asosida uning xalqaro valyuta-moliya va savdo mexanizmlariga bevosita qo'shilishidir. O'zbekistonning BMT, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (OBSE), Yevropa hamjamiyati, NATO, Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (EKO) kabi tashkilotlar faoliyatidagi faol ishtiroki uning jahon xo'jaligiga yanada kengroq integratsiyalashuvini ta'minlaydi.

²¹ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O'zbekiston, 1997, 299-bet.

O'zbekistonning transkontinental darajada amalga oshiriluvchi integratsion vazifasi – bu xalqaro transosiyo Iqtisodiy xamkorlik tashkiloti (EKO) doirasidagi o'zaro aloqalarni yanada kuchaytirishdan iborat. Bu tashkilot 1992 yilda tashkil etilgan bo'lib, o'z ichiga Osiyo qit'asining 10 ta davlati (Turkiya, Eron, Pokiston, Afg'oniston, O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va Ozarbayjon)ni oladi. Uning asosiy maqsadi – xo'jalikning transport, kommunikatsiyalar, sanoat, qishloq xo'jaligi, savdo, turizm, ishchi kuchi resurslarini rivojlantirish kabi sohalarida mintaqaviy va xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yo'lga qo'yishdan iborat.

O'zbekistonning mintaqalararo darajada yangi mustaqil davlatlar – MDH mamlakatlari bilan integratsiyaga kirishadi. O'zbekiston birinchilar qatorida MDHni tashkil etish g'oyasini qo'llab-quvvatladi, uning tashkilotchilari tarkibiga kirdi, integratsion va kooperatsion aloqalarini mustahkamlash hamda uning Xalqaro iqtisodiy qo'mita (MEK), Davlatlararo bank (MGB), MDH Statistika qo'mitasi kabi institutsional tuzilmalarini shakllantirishda faol ishtirok etmoqda.

O'zbekistonning mintaqaviy darajadagi integratsiyasi – bu umumiy tarixga, yagona madaniy an'analarga, o'xshash turmush tarzi va mentalitetga ega bo'lgan qardosh xalqlarni birlashtiruvchi Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash va rivojlantirishdan iborat. Bunday integratsion aloqaning aniq shakli sifatida 1992 yilning yanvar oyida tashkil etilgan Markaziy Osiyo mintaqaviy hamkorligi (SARS) tashkil etildi.

Yana bir istiqbolli, kuchli salohiyatga ega bo'lgan mintaqaviy birlashmalardan biri – Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShOS)dir. Bu tashkilot 2001 yilning 15 iyunida oltita – O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Rossiya va Xitoy mamlakatlari hamkorligida tashkil etildi.

O'zbekistonning Shanxay hamkorlik tashkiloti mamlakatlari bilan iqtisodiy integratsiyasining kuchayishi ko'p jihatdan mazkur mamlakatlarning milliy manfaatdorligi bilan belgilanadi. Eng avvalo, O'zbekiston raqobat jihatidan nisbatan ustunlikka ega bo'lgan ishlab chiqarish sohalarida tovarlari – paxta xom ashyosi,

mashinasozlik, kimyo sanoati, qurilish materiallari sanoati, elektr energetikasi tovarlarining savdosini kengaytirishi maqsadga muvofiqdir.

O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib borishi BMTning respublikada amalga oshirayotgan iqtisodiy, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, fan sohalarida amalga oshirilayotgan loyihalarida ham namoyon bo'ladi. Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lgan mamlakatlar bilan iqtisodiy va savdo sohasidagi hamkorlik, NATOning «Tinchlik yo'lidagi sheriklik» dasturida mamlakatimiz ishtiroki uning jahon xo'jaligi qo'shilishning navbatdagi yo'nalishidir.

O'zbekistonning Xalqaro valyuta fondi va jahon banki bilan hamkorligi tashqi iqtisodiy faoliyatini amalga oshirishdagi navbatdagi yo'nalishdir. Bu yo'nalishda XVF bilan tizimli qayta qurilishlarni mablag' bilan ta'minlash, tizimli va makroiqtisodiy siyosat sohasidagi tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash dasturlari maqullandi.

Jahon bank tashkilotlari – Xalqaro ta'mirlash va rivojlanish banki (XTRB), Xalqaro rivojlanish uyushmasi (XRU), Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK) va Investitsiyalarni kafolatlash xalqaro agentligi (IKXA) bilan hamkorlik O'zbekistonning tashqi iqtisodiy strategiyasini amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK) ham O'zbekistonda bir qator loyihalarni amalga oshirishda ishtirok etmoqda.

O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatini amalga oshirishda Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YeTTB) alohida rol o'ynaydi.

Shunday qilib, O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga qo'shilishida dunyo mamlakatlari, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan hamkorlik hal qiluvchi o'ringa ega bo'lib, bu milliy iqtisodiyotning baynalmilallashuvini kuchaytiradi hamda iqtisodiy taraqqiyotini yuqori bosqichga ko'tarishning asosiy tashqi omillari hisoblanadi.

Xulosa

Xalqaro valuta-kredit munosabatlari – bozor iqtisodiyotining tarkibiy qismi va eng murakkab jarayonlaridan biridir. Ko'plab omillar ta'sirida xalqaro valuta-kredit munosabatlari murakkablashmoqda va hozirgi sharoitda o'zining o'ta beqarorligi bilan ahamiyatlidir.

Pulning jahon xo'jaligida amal qilishi va turli xalqaro iqtisodiy aloqalarga (tashqi savdo, ishchi kuchi va kapital migratsiyasi, daromadlar, qarzlar va subsidiyalar oqimi, ilmiy-texnikaviy mahsulotlarni ayirboshlash, turizm va h.k.) xizmat qilishi bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar xalqaro valyuta-kredit munosabatlari deb ataladi. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari pulning xalqaro to'lov munosabatida amal qilish jarayonida vujudga keladi. Valyuta – bu mamlakatlar pul birligi (masalan, so'm, dollar, funt sterling va h.k.). Har bir milliy bozor o'zining milliy valyuta tizimiga ega bo'ladi.

Xalqaro valuta munosabatlari – valutaning jahon xo'jaligida amal qilishi borasida shakllanadigan va milliy xo'jaliklar faoliyati natijalarining o'zaro almashuviga xizmat ko'rsatadigan ijtimoiy munosabatlar yig'indisidir.

Xalqaro kredit - bu ssuda kapitalning xalqaro miqyosida harakati bo'lib, bu harakat tovar va valyuta ko'rinishidagi mablag'larni qaytarib berishlik, muddatlilik va xaq to'lashlik asosida berish bilan bog'liqdir.

Mamlakatning ishlab chiqarish salohiyati, iqtisodiy rivojlanish darajalari, moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish sifatlari va hajmining o'sishi, ishlab chiqarish infratuzilmasining tarakqiyoti ko'p jihatdan xalqaro valyuta-kredit munosabatlariga bog'liq.

Shuningdek, xalqaro valuta-kredit munosabatlari jamiyatda moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish sohalariga maqsadli va asoslangan investitsiyalar jalb etishni o'zida aks ettiradi. U yoki bu davlatning zamonaviy xalqaro valuta-kredit munosabatlari iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, qishloq xo'jaligini ko'tarish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, aholini ish bilan ta'minlash, fan va texnikani rivojlantirish va shuningdek, ekologik muammolarni hal etish bilan ajralib turadi.

O'zbekistonda islohotlarning hozirgi bosqichida Xalqaro valuta-kredit munosabatlarining bosh maqsadi – iqtisodiyotda tarkibiy o'zgartirishlarni, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini amalga oshirish uchun korxonalar va kompaniyalarning investitsion faolligini yanada kuchaytirish, iqtisodiytoni raqobatbardoshligini ta'minlash, markazlashmagan investitsiyalarni ko'paytirish, iqtisodiyotga ko'proq investitsiyalarni jalb qilishdir.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, xalqaro valuta-kredit munosabatlarida strategik investorlar ko'p miqdordagi mablag'larni birinchi navbatda iqtisodiyoti o'z ichki imkoniyatlari asosida barqaror va izchil ravishda rivojlanayotgan mamlakatlarga yo'naltiradi. Aynan shunday mamlakatlardagina qo'yilgan mablag'lar saqlanishiga va barqaror foyda olishga mo'ljal qilsa bo'ladi. Ichki va xorijiy investorlarni birinchi navbatda minimal darajadagi soliq imtiyozlari emas, balki biznesdagi keyingi qulay va maqbul istiqbollar qiziqtiradi. Qolaversa, ular eng avvalo mintaqalarning emas, balki mamlakatning xatarlilik darajasini hisobga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: O'zbekiston, 2017 y.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni. 2017 yil 7 fevral.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil, 24 yanvar.
4. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. 04.02.2014. Toshkent.
5. Красавина Л.Н.Международные валютно-кредитные и финансовые отношения. —М.: «ФИС». 2001 г.
6. Платонова И.Н. Валютный рынок и валютное регулирование. -М.: «ФИС». 2004 г.
7. Бержанов С.А. Валютная система, валютный рынок и валютные операции. - Нукус. 1996
8. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari. Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma / Mualliflar: Xudoyberdiev Z.Y., Qahhorov, Z.Y., Umarov Z.A., Sohibov O.Q. – T.: "IQTISOD – MOLIYA", 2013.
9. Tojiyev R.R. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari. Darslik. - T.: TDIU, 2009 y.
10. A.O'lmasov. Iqtisodiyot asoslari. Toshkent "Mehnat" 1997 yil.
11. Sh.SH.Shodmonovning Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik; O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2010..
12. M.Rasulov. Bozor iqtisodiyoti asoslari. Toshkent "O'zbekiston"1999 yil.
13. Galanov V.A. Finansi, Denejnoe obrashenie i kredit: Uchebnik. – M.: FORUM: INFRA-M, 2006.
14. Tojiyev R.R. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari. Darslik. - T.: TDIU, 2009 y.
15. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi Press-revizlar, Toshkent, 2019.

16. www.president.uz – O‘zbekiston Respublikasi prezidentining rasmiy veb-sayti.
17. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi rasmiy veb-sayti.
18. www.mineconomy.uz - O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy Taraqqiyot va Kambag‘allikni Qisqartirish Vazirligi rasmiy veb-sayti.
19. www.lex.uz - O‘zbekiston Respublikasi Milliy qonunchilik tizimining veb-sayti.
20. www.cbu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy veb-sayti.
21. www.mf.uz – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy veb-sayti.
22. www.kun.uz – yangiliklar veb-sayti.
23. www.ziyonet.uz - axborot ta‘lim tarmog‘i.
24. www.wikipedia.org - global internet tarmog‘i ensiklopediyasi.